



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 72-82 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TAKOFUL YOKI ISLOM SUG'URTASI: IQTISODIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING AMALIY TADBIQ ETILISHI



Gadaev Jaxongir Muhammadi o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

"Moliya, soliq va bank ishi" kafedrası assistenti

e-mail: jahongadayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom sug'urtasi yoki takofulni aniqlash bo'yicha mavjud bo'lgan yondashuvlar turli omillar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ko'pgina nazariy va ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida an'anaviy tijorat sug'urtasi va tafakul sug'urtasining tamoyillari, qoidalar va o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada tahlil qilingan funksiyalar, tamoyillar va qoidalar asosida takofulning iqtisodiy mohiyati, mazmuni ochib berilgan va ularni zamonaviy sharoitalarda amalga oshirish mexanizmlari ko'rsatilgan. Takoful sug'urasining vujudga kelish bosqichlari, xizmatlarni ko'rsatish usullari va ularning ixtisoslashuvi, iste'molchilari, tashkiliy modellari, ularning o'ziga xos asosiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Islom sug'urtasi, takoful, takoful tamoyillari, funksiyalari, takoful modellari, g'arar, meysir, ribo, shariat ta'qiqlari.

Аннотация: В данной статье анализируются существующие подходы к определению исламского страхования или такофула с различных точек зрения. На основе анализа множества теоретических и научных источников рассматриваются принципы, правила и особенности традиционного коммерческого страхования и исламского страхования (такофул). В статье, на основе рассмотренных функций, принципов и правил, раскрываются экономическая сущность, содержание такофула и механизмы его реализации в современных условиях. Описание включает этапы формирования такофул-страхования, способы предоставления услуг, их специализацию, потребителей, организационные модели, а также основные характерные особенности таких моделей.

Ключевые слова: Исламское страхование, такофул, принципы такофула, функции такофула, модели такофула, гхарар, майсир, риба, шариятские запреты.

Abstract: This article analyzes existing approaches to defining Islamic insurance or takaful from various perspectives. Based on the analysis of numerous theoretical and scientific sources, the principles, rules, and distinctive features of traditional commercial insurance and Islamic insurance (takaful) are examined. The article reveals the economic essence and content of takaful based on the functions, principles, and rules discussed, as well as the mechanisms for its implementation in modern conditions. The analysis covers the stages of takaful insurance formation, methods of service delivery, their specialization, consumers, organizational models, and the main characteristic features of these models.

Keywords: Islamic insurance, takaful, principles of takaful, functions of takaful, takaful models, gharar, maysir, riba, Sharia prohibitions.

1. Kirish

So‘nggi yillarda jahon hamjamiyati va iqtisodiyotida bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar (iqtisodiy sanksiyalar, inqirozlar, siyosiy o‘zgarishlar va to‘siqlar, siyosiy vaziyatlar natijasida aholi migrasiyasining kuchayishi, pandemiya va boshqalar) natijasida iqtisodiy rivojlanish vektori va strategiyasini, jumladan moliya institutlari rivojlanishini qayta ko‘rib chiqishni, shuningdek sug‘urta sohasi va uning elementlari, yangi usullarini (islom sug‘urtasi takofulni) keng joriy etishni davr talab qilib qo‘ymoqda.

Hozirgi kunda tijorat va o‘zaro sug‘urta ko‘plab mamlakatlarning sug‘urta xizmatlari bozorlarida keng rivojlanib kelmoqda. Islom sug‘urtasi jahon sug‘urta bozorida ham muvaffaqiyatli rivojlanib bormoqda va barcha aholi qatlamlari orasida keng foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, milliy sug‘urta bozorimiz iste‘molchilari orasida ham juda katta qiziqish o‘ygotmoqda. Bu borada Davlatimiz rahbari Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati kelganligi shuningdek, bunda Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarini jalb etish” [1] masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ammo shunga e’tibor berish kerakki, hamma mamlakatlarda ham islom sug‘urtasini joriy etishning institutsional, qonunchilik va tashkiliy mexanizmlari shakllanmaganligi sababli sug‘urta sohasida uni joriy qilishda turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Islom sug‘urtasi yoki takoful – bu islom moliya tizimining yangi rivojlanib kelayotgan yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda islom sug‘urta tizimi barqaror o‘sish ko‘rsatkichlarini namoyon etib kelmoqda, ammo bu islom moliya tizimining boshqa sohalariga nisbatan rivojlanish davrini bosib o‘tmoqda.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Dastlab takoful musulmonlar uchun zamonaviy sug‘urta tizimiga nisbatan shariat qonunlarini hisobga olgan holda muqobil tizimi sifatida shakllanib kelgan, ammo vaqt o‘tishi bilan takoful xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlar xizmatlaridan boshqa din vakillari ham keng foydalana boshlashgan. Bugunga kunga kelib islomiy sug‘urta xizmatlari taqdim etiladigan mamlakatlarda takoful tashkilot mijozlari turli xil e’tiqoddagi din vakillari hisoblanadilar.

Aksariyat olimlar tomonidan “takoful” so‘zi arab tilida “bir-biriga o‘zaro kelishilgan kafolatlarni taqdim etish” degan ma’noni anglatuvchi “kafala” iborasidan kelib chiqqanligini ta’kidlashadi.

Tafakulga berilgan tariflarni umumlashtiradigan bo‘lsak qo‘yidagi yondashuvlarni ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Takofulga berilgan tariflar tasnifi

Mualliflar	Takofulga berilgan tariflar
R.I. Bekkin	Ham tijorat, ham o‘zaro shaklda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan mustaqil muqobil sug‘urta tizimi [2]
I.L. Logvinova	Sug‘urta himoyasini taqdim shakli [3]
A.S. Riskulov, A.O. Soldatova,	Islom sug‘urtasi yoki takoful – bu o‘zaro yordam (taavun) va ixtiyoriy badallar (tabarru) tamoyillariga asoslangan holda guruh

S.P. Fukina	a'zolari o'rtasida risklarni taqsimlanishi ta'minlaydigan tizim. Takoful islom huquqi tamoyillariga javob beradigan sug'urta shaklidir [4-5, 9].
Ya. Bumbadji, A.A. Sigantov	ishtirokchilari va tashkilot o'rtasida foyda va zaralarni taqsimlash tamoyiliga asoslangan holda shariat qonunlariga muvofiq sug'urta himoyasini taqdim etishdir, halqaro amaliyotda takoful deb yuritiladi [6].

Badawi (1998) an'anaviy sug'urta va takofulni bir xil deb hisoblaydilar, masalan "takoful tushunchasi an'anaviy sug'urtaga juda yaqin bo'lib, ham islomiy ham an'anaviy sug'urta bu moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan fuqarolarga yordam berish vositasidir. Bunday vositalar risklarni bartaraf etishning zamonaviy usullari hisoblanadi" [7].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, an'anaviy tijorat sug'urtasi va takoful risklarni bartaraf etmaydi, balki salbiy oqibatlar natijasida etkazilishi mumkin bo'lgan moliyaviy zararlarni kamaytirishga yordam beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida islom sug'urtasi, takofulning sug'urta sohasidagi o'rni borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek takoful sug'urtasini joriy etish muammolari va ularning echimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

4. Tahlil va natijalar

Takofulning mohiyatini talqin etishdan oldin uning tamoyillari, qoidalari va o'ziga xos xususiyatlarini qo'rib chiqamiz. An'anaviy tijorat sug'urtasining takofuldan farqi unda ribo (sudxo'rlik), g'arar (nonaniqlik, mavhumlik), maysir (qimor) va harom (taqiqlangan faoliyat turi) kabi taqiqlangan elementlari mavjudligidir (2-jadval).

2-jadval

Takoful sug'urtasining mohiyati

An'anaviy tijorat sug'urtasida ta'qiqlangan unsurlar	Mohiyati	Takoful sug'urtasidagi echim
G'arar	Sug'urtaning ayrim turlarida sug'urta qoplamasi miqdori bilan bog'liq noaniqliklar mavjud.	Takoful fondidagi ishtirokchi zararni qoplash uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining kafolatli to'lanishidan tashqari, sug'urta hodisasi yuz berishidan qat'i nazar (foйда va zararni taqsimlashga asoslangan tizim) daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Takoful operatori ham oldindan kelishilgan shartnoma shartlariga ko'ra daromaddagi o'z ulushini biladi.
	Sug'urtalanuvchida sug'urta kompaniyasida sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lash bo'yicha pul mablag'larining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi.	
	Sug'urtalanuvchida u to'lagan sug'urta pullari shariat qoidalari asosidagi ruxsat etilgan	

	operatsiyalarda ishlatilishi bo'yicha ishonchning yo'qligi.	
Maysir	Sug'urta hodisasi sodir bo'ladimi yo'qmi noma'lum, sug'urta qoplamasi to'lanadimi yo'qmi shartnoma ishtirokchilari uchun mavxum hisoblanadi.	Takoful shartnomasida risklarni taqsimlash spekulativ elementlar bo'lmasligi kerak, shu sabali munosabatlar o'zaro himoyaga asoslanadi (taavun)
Ribo	Ishtirokchilarning badallari an'anaviy sug'urtada mukofot sifatida ko'rib chiqiladi.	Ishtirokchilarning badallari hadiya, ixtiyoriy xayr-ehson (tabarru) sifatida baholanadi va maxsus fonda shakllantiriladi, undan esa sug'urta hodisasi yuz berganda taqdirda to'lov to'lab beriladi

Manba: Fukina (2014) [8], Soldatova (2012) [9], Magomedova (2014) [10] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Islom moliya tizimidagi asosiy taqiqlangan tamoyillardan tashqari, taqiqlovchi tamoyillar ham mavjud, jumladan:

- risklarni taqsimlash (qayta sug'urtalash) – islomda shartnoma ishtirokchilarining risklarini pul evaziga (eki boshqa) boshqa tomonga yoki uchinchi shaxslarga berish (o'tkazish, transfert) taqiqlanadi. Shartnoma ishtirokchilari kelishuvda kelishilgan risklarni o'zaro (yoki ishtirokiga mos ravishda) taqsimlashlari majburdirlar;
- shartnomaning amalda bo'lishi (shartlar buzilmasligi) – shartnoma majburiyatlarini bajarish tomonlar majburiyatlarining eng muhimi hisoblanadi;
- pul mablag'lari faqat potensial kapital sifatida qaraladi, u ishlab chiqarish faoliyatiga (zaxiralarni investisiya qilish) investisiya qilingandan keyingina haqiqiy kapital hisoblanadi.

Takofulning asosiy tamoyillari va qoidalari qo'yidagilardan iborat:

- Har bir ishtirokchi tomonidan to'lanadigan badallarning bir qismi ixtiyoriy xadya va xayr-ehson sifatida ko'rib chiqiladi va sug'urta hodisasi yuz berganda to'lovlarni kafolatlaydigan fondga yo'naltiriladi, shu sababli unda ortiqcha g'arar (noaniqlik, mavhumlik) yo'qdir. Shuningdek takoful tashkiloti ham shartnomaga muvofiq o'z foyda ulushi haqida xabardor bo'ladi. Olinadigan daromad miqdori tashkilot toinidan amalga oshiriladigan operatsiyalarga bog'liq bo'ladi va u olingan haqiqiy daromadga bog'liq bulmaydi va qat'iy belgilanmaydi;
- takofulning asosiy maqsadi bu sug'urta jarayonlari ishtirokchilariga risklardan kafolat taqlim etish, bunda tomonlar bir vaqtning o'zida ham kafolat beruvchi va olivuchi shaxs sifatida ishtirok etishadi;
- an'anaviy tijorat sug'urtasida keng qo'llaniladigan foizli munosabatlardan qochgan holda foydani taqsimlashning maxsus ("mudaraba") mexanizmidan foydalanishi;
- takoful tashkilotlarining yangi mahsulotalrini (xizmatlarini) baholash, takoful operatorlari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatlarini islom huquqi, me'yorlari va

tamoyillariga muvofiqqligini nazorat qilish bo'yicha maxsus ixtisoslashgan (Shariat ko'zatuv kengashi) organning mavjudligi;

- takoful shartnomasining barcha tomonlari amal qilishi kerak bo'lgan yuqori vijdonli javobgarlik (utmost good faith) tamoyilining mavjudligi;

- sug'urtalanuvchilar tafakul sug'urta kompaniyasining direktorlar kengashiga o'z vakillarini tayinlash huquqiga egadirlar;

- ana'naviy tijorat sug'urtasidan farqli o'laroq, takofulda "meros" (merosxo'r) va "vasiyat" (sug'urtalanuvchining xoxish istagi) shartlarini buzish mumkin emas.

Takoful o'zida o'zaro yordamga asoslangan taqsimot munosabatlarini aks etiradi. Islom sug'urtasi tijorat va o'zaro sug'urta shaklda amalga oshirilishiga mumkinligi sababli unda turli din e'tiqodagi fuqarolar guruhi ixtiyoriy ravishda risklarni taqsimlashda va foydada ishtirok etishlari mumkin.

Takoful mohiyatini uning funksiyalari yanada yorqinroq ochib beradi. Gomellya (2010) takoful huddi tijarat sug'urtasiga o'xshash funksiyalarini (risklilik, ogohlantirish, jamg'arish, nazorat) bajaradi.

Takofulda tijorat sug'urtasi funksiyalarining talqin va amal qilish mohiyatini olib qaraydigan bo'lsak qo'yidagilarni ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Takofulda sug'urta funksiyalarining talqini¹

Sug'urta funksiyasi	Namoyon bo'lish shakllari
Risklilik	Risk takoful fondi jamoa ishirokchilari o'rtasida ixtiyoriy ravishda qayta taqsimlanishi
Ogohlantirish	Sug'urta hodisasi oqibatlari va darajasini kamaytirish maqsadida takoful fondi hisobidan ogohlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishi
Jamg'arish (depozit)	Ishtirokchilarning maxsus hisobvarag'idagi mablag'larni investisiya qilishidan olingan foydada (takoful fondini boshqarish turiga qarab ishtirokchilar mablag'larining to'liq yoki bir qismi shariat qonunlari bilan ruxsat berilgan faoliyat turlariga investisiya qilinishi)
Nazorat	Shariat kengashi tomonidan – islom qonun qoidalari asosida investisiya qilish biznes-modellari va shakllarini nazorat qilinishi; Takoful operatorlari tomonidan – sug'urta tariflari, xarajatlari, sug'urta to'lovlari miqdorlarini hisoblashning asoslanganligi baholash, investisiya foydasini aniqlanishi.

Yuqorida keltirilgan funksiyalarni tahlili natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki "risklilik" funksiyasi takofulda "himoya" funksiyasi vazifasida talqin etiladi, sababi takofulning asosiy maqsadi shariat qonun qoidalari va tamoyillariga muvofiq ishtirokchilarni, ularning mulkiy manfaatlarini har xil turdagi risklardan himoya qilish hisoblanadi. An'anaviy tijorat sug'urtasida jamg'arish (depozit) funksiyasi faqat hayot sug'urtasida hisobga olinadi, takofulda esa har qanday sug'urta turidagi shartnomalar uchun ishtirokchilarning badallari yig'ilib boriladi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Takoful fondi ishtirokchilarning badallari "hadiyalari" hisobiga shakllanadi va sug'urtalanuvchilar (fond ishtirokchilari) ularni saqlab qolmaydi. Biroq, ular kiritilgan (depozit) mablag'larning to'liq yoki bir qismini investisiya qilinishi sababli daromad olishadi. Shu sababli takofulda jamg'arish funksiyasi amalga oshirilmaydi, balki to'liq miqdor depozit funksiyasi amalga oshiriladi.

Takoful sug'urtasi yigirmanchi asrning 70-yillarida musulmon mamlakatlarda an'anaviy tijorat sug'urtasi shariat qonun qoidalariga zid deb topilganidan keyin rivojlana boshlangan (4-jadval).

4-jadval

Jahonda takoful sug'urtasining shakllanishi

Yil	Tavsifi
1972	Malaziyaning Fatvo qo'mitasi hayot sug'urtasida ribo, g'arar va meysir elementlari mavjudligi tufayli unga taqiq qo'ydi
1976	Makkada (Saudiya Arabiston) bo'lib o'tgan Islom iqtisodiyoti bo'yicha birinchi xalqaro konferensiyasida tijorat sug'urtasini islom qonun qoidalariga mos kelmasligi sababli taqiqlash bo'yicha qaror qabul qildi.
1979	Sudanda tashkil etilgan birinchi islom sug'urta kompaniyalari kooperativ model shaklida birodarlik va o'zaro yordam tamoyili asosida islom sug'urtasining konsepsiyasiga amal qilgan holda faoliyat boshladilar. Qisqa vaqt ichida Malaziya, Bahrayn, BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg davlatlarida islom tamoyillariga amal qiladigan takoful operatorlari faoliyati yo'lga qo'yildi
1984	Malaziyada Islom sug'urtasi to'g'risida qonun qabul qilindi va birinchi islom sug'urta tashkiloti (takoful) paydo bo'ldi
1985	Islom konferensiyasi tashkiloti huzuridagi Islom huquqshunoslik (fiqx) akademiyasi kengashi "Sug'urta va qayta sug'urta" to'g'risida fatvo qabul qildi, unda an'anaviy tijorat sug'urtasi shariat qonun qoidalariga nomuvofiq deb topildi. Shuningdek musulmon davlatlar hukumatlariga shariat tamoyillari asosida islom sug'urta tizimini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida tavsiyalar berildi. Shu bilan qatorda tomonlarning birgalikdagi javobgarligini nazarda tutuvchi o'zaro yordam (taavun) va xayriya tamoyillariga asoslangan kelishuvlardan foydalanish taklif qilindi.

Manba: Magomadova (2014) [10], Lagunov (2011) [12] ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

Jadvalda keltirilgan tavsiflardan ko'rinib turibdiki tijorat sug'urtasida mavjud taqiqlangan elementlar takoful sug'urtasida voz kechilganligi, shuningdek uning o'ziga xos xususiyatlari ta'kidlangan va ajratib ko'rsatilgan.

Takoful sug'urtada xuddi tijorat sug'urtasiga o'xshagan umumiy (mulkiy va javobgarlik sug'urtasi) va shaxsiy (oilaviy) sug'urta tarmoqlari mavjud. Takoful operatorlarining sug'urta va investisiya faoliyati natijalarini taqsimlashda turli xil yondashuvlarni hisobga olgan holda takoful sug'urtasi musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ommalashib borayotganga tayanib uning qo'yidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Takoful sug'urtaning tasniflanishi²

Takoful sug'urta modellarini tahlil qilar ekanmiz kshydagi holatni ko'zatishimiz mumkin (5-jadval). Bunday turdagi takoful modellarining paydo bo'lishi islom sug'urtasining rivojlanishi evolyusiyasining najasidir.

² Muallif tomonidan tayyorlandi.

5-jadval

Takoful sug'urta modellarining tasnifi

Model	Tavsifi
Daromadsiz (taavun)	Ishtirokchilar o'rtasida birodarlik, birdamlik va o'zaro hamkorlik konsepsiyasiga asoslangan, to'satdan sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar yoki falokatlar natijasida yordamga muhtojlarga yordam berishga asoslanadi. Takoful operatori ishtirokchilar nomidan ishonchli boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritadi va foyda olish niyatida bo'lmaydi. Foyda va anderaytirlik ustamolari (ortib qolgan mablag'lar, qo'shimchalar) ishtirokchilar o'rtasida to'liq taqsimlanadi
Kooperativ (sof mudaraba)	Takoful operatori ishtirokchilar mablag'lari bilan ishlaydi, bunda ishtirokchilar 100 foiz sug'urta daromadani olish huquqiga ega bo'ladilar. Ortiqcha mablag'larni investisiya qilish orqali olingan foyda ishtirokchilar va operator o'rtasida kelishilgan ulushda taqsimlanadi. Foydaning kelishilgan ulushlarini ishtirokchilar o'rtasida taqsimlamasdan oldin tashkilotga har qanday ajratmalarni amalga oshirish huquqi berilmaydi. Tashkilotning barcha xarajatlari uning foydadagi ulushi orqali qoplanadi. Sof mudaraba umumiy sug'urtaga (mulkiy va javabgarlik sug'urtasi) nisbatan ko'proq oilaviy (shaxsiy sug'urta) to'g'ri keladi.
Tijorat (modifikasiyalashgan mudaraba)	Bu ishtirokchilar va operator o'rtasida kelishilgan ulushlarda nafaqat investisiya faoliyatidan olingan foyda, balki sug'urta faoliyatidan olingan foydani ham taqsimlashni nazarda tutadi. Shuningdek, zararlar ham tomonlar o'rtasida taqsimlanishi ko'zda tutiladi. Ortib qolgan mablag'larni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishidan oldin operator ulardan qilingan xarajatlarni ushlab qoladi
Agentlik (vaqala)	Sug'urta tashkiloti ishtirokchilar uchun agent (vositachi) vazifasini bajaradi. Agentlik modelida operator ishtirokchilardan qat'iy belgilangan (komission haq, vositachilik haqi) haq oladi, u agent tomonidan qilingan operasion xarajatlarni qoplaydi va ishtirokchilar badallari hisobidan undiriladi (shakllanadi). Ushbu modelda ishtirokchilar barcha risklarni o'z zimmlariga olishadi (agar sug'urta to'lovi miqdori ishtirokchilar tomonidan to'langan sug'urta badallaridan yuqori bo'lsa, unda bu farq ishtirokchilarning qo'shimcha to'lovlari hisobiga qoplanadi). Operator ishtirokchilarga tegishli bo'lgan ortiqcha mablag'larga da'vogar bo'la olmaydi. Shuningdek "modifikasiyalashgan vaqala" modeli mavjud, undan foylanganda sug'urta faoliyatidan olingan foyda tashkilot (uning aksiyadorlari) va shartnoma muddati davomida zararni qoplab berish to'g'risida da'vo bermagan (murojat etmagan) ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Yana qo'yidagi variantlar ham mavjud: - qoplash berish da'vo arizasidan qat'iy nazar barcha ishtirokchilar ortiqcha mablag'larni olish huquqiga egaligi; - har bir ishtirokchi ortiqcha mablag'larini talab qilish

	huquqiga ega agarda to'langan qoplama u to'lagan badallar miqdoridan oshmagan bo'lsa
Gibrid model (mudaraba-vaqala)	Takoful operator ishtirokchilar fondini boshqaruvchi vakil vazifasini bajaradi va ko'rsatilgan xizmatlari uchun o'rnatilgan (belgilangan) haqni oladi. Ishtirokchilar fondidan foydalangan holda olingan investisiya daromadlari operator va ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.
Vaqala-vaqf modeli	Ushbu model modifikasiyalashgan vaqala modelini aks ettiradi, unda operator aksiyadorlarining boshlang'ich xayra mablag'lari hisobidan vaqf fondi tashkil etiladi. Ishtirokchilar mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri vaqf fondiga yuboriladi. Takoful operatorlari o'z yig'imlarini vaqf fondidan ushlab qoladi. Qolgan mablag'lar shariat tomonidan tavsiya etilgan investisiya vositalariga investisiya qilinadi. Investisiyadan olingan foyda operator va ishtirokchilar o'rtasida kelishilgan ulushlarda taqsimlanadi. Qoplamalar, retakoful xarajatlari va anderayterlik xarajatlari chegirib tashlangan keyin sug'urta faoliyatidan olingan 100 foiz daromad sug'urta hodisasi yuz bermagan ishtirokchilar o'rtasida ularning ulushlariga muvofiq taqsimlanadi

Manba: Gomellya (2010) [11], Akhter (2010) [13], Tufetulov (2014) [14] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Hozirgi iqtisodiy sharoitda islom sug'urtasi rivojlanishining dastlabki bosqichiga xos bo'lgan "daromadsiz (taavun)" modeli o'zining raqobatbardoshligini ko'rsatdi. Bu shu bilan izohlanadiki, har bir tadbirkor ya'ni takoful fond operatori o'z faoliyati uchun mukofot olishi, ya'ni agentlik haqi olishi yoki foliyat natijalarini taqsimlashda ishtirok etishi yoxud arashlash ko'rinishda haq olishdan manfaatdor hisoblanadi. Shu sababli ushbu takoful modelidan deyarli foydalanilmayapti.

5. Xulosa va takliflar

Umuman olgan takoful moliya bozori ishtirokchilari uchun shunisi bilan qiziqi u moliyaviy inqirozlar davrida sinovdan o'tgan va barqaror rivojlanishning yuqori sur'atlarini namoyon etgan.

Har qanday mamlakat milliy sug'urta tizimiga islom sug'urtanisi joriy etishi va rivojlantirishda qo'yida yo'nalishlarda faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi, ya'ni:

- 1) davlat organlari, shu jumladan sug'urta nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish;
- 2) sug'urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish;
- 3) salohiyatli sug'urtalanuvchilar orasida yangi stereotiplarni shakllantirish ishlarni olib borishi kerak buladi.

Bu yo'nalishlarda ishlarni yanada oydinlashtiradigan bo'lsak ular qo'yidagi chora-tadbirlarni qamrab olishi lozim, jumladan davlat hoqimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan qo'yidagilar:

- shariat qonun va qoidalari asosida islom sug'urtasini milliy sug'urta xizmatlar bozorida tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- xalol sug'urta standartlarini ishlab chiqish;
- takoful operatorlari faoliyatini tartib solish nuqtai nazaridan qonunchilik xujjatlarini ishlab chiqish;
- xorijiy takoful tashkilotlari va sug'urta nazorati organlari faoliyati tajribalarini o'rganish;
- takoful tashkilotlarini faoliyatini tashkil etishning tashkiliy, xuquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda qo'yidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- islom sug'urtani amalga oshirish imkonini beradigan sug'urta shartlari va qoidalarini ishlab chiqish;
- kompaniya faoliyatiga takoful operatsiyalarini va mahsulotlarini shariat me'yorlariga muvofiqligi nazorat qilib boradigan maslahatchilarni (Shariat kengashi orasidan) jalb qilish;
- takoful fondi shakllantirish modelini tanlash va uning asosligini asoslash;
- takoful fondini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish;
- takoful sohasida xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahliliy asosda o'rganish.

Salohiyatli sug'urtalanuvchilar o'rtasida yangi stereotiplarni shakllantirish borasida qo'yidagilarni amalga oshirish:

- takoful operatsiyalarini va mahsulotlarining xususiyatlarini ochib berish bo'yicha tanishtiruv va amaliy seminarlar (treninglar) tashkil etish;
- takoful mahsulotlariga barqaror talab shakllantirish maqsadida reklama tadbirlarini amalga oshirib borish.

Shunday qilib takoful sug'urtasi tijorat sug'urtasi qamrab olmagan sohalarni qamrab olishi hisobiga sug'urta bozorini kengaytirishi mumkin. Islom sug'urtasini joriy etish jarayoni bir muncha murakkab bo'lishi mumkin, biroq jahon bozorida takoful xizmatlariga bo'lgan talab tobora ortib borayotganligi sababli islom sug'urasini joriy etish davr talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 30 dekabr, №276 (7778) son.
2. Беккин Р.И. (2003) Страхование в мусульманском праве: теория и практика: дис., канд. экон. наук. М., С. 79–81.
3. Логвинова И.Л. (2012) Такофул как метод создания страховой защиты // Страховое дело. № 12. С. 76–86.
4. Рыскулов А.С. (2010) Исламское страхование: сущность, содержание, принципы // Развитие экономики в посткризисный период: ориентиры и перспективы роста: сборник. Алматы, Т. III. С. 311–318.
5. Фукина С.П. (2014) Особенности организации исламского страхования и перспективы его внедрения на страховой рынок России // Вестник АГТУ. № 1. С. 108–115.
6. Бумбаджи Я., Цыганов А.А. (2014) Институциональная структура регулирования исламского страхования // Финансовый журнал. № 1. С. 35–44.

7. Badawi Z. A (1998) Model for Mutual Insurance // Islamic Banker. June. P. 18.
8. Фукина, С.П. (2014) Особенности организации исламского страхования и перспективы его внедрения на страховой рынок России / С.П. Фукина // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. № 1. – С. 108-116.
9. Солдатова, А.О. (2012) Такофул или страхование по-исламски / А.О. Солдатова // Проблемы современной экономики (Новосибирск). – № 7. – С. 264-268.
10. Магомадова, М.М. (2014) Организационно-экономический механизм развития исламского страхования в регионах России / М.М. Магомадова // Современные проблемы науки и образования. – № 3. – С. 383-393.
11. Гомелля В.Б. (2010) Очерки экономической теории страхования / под ред. Е.В. Коломина. М., С. 73–75.
12. Лагунов, А.С. (2011) Малайзия в качестве мирового лидера исламской финансовой системы / А.С. Лагунов // Юго-Восточная Азия: актуальные проблемы развития. – № 16. – С. 212-225.
13. Akhter, W. (2010) Takaful Models and Global Practices / W. Akhter // Journal of Islamic banking and finance. – Vol. 27. – № 01. – P. 30-44. – Режим доступа: mpra.ub.uni-muenchen.de/40010.
14. Туфетулов, А.М. (2014) Контрактные модели такофул / А.М. Туфетулов // Социальная роль системы страхования в условиях рыночной экономики России: Сборник трудов XV Международной научно-практической конференции. Гафуров И.Р. (отв.редактор). Казань, – С. 157-160.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

